

SAMARQAND QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI
VETERINARIYA ZOOTEKNI VA QORAKO'LCHILIK FAKULTETI

“Yaylov chorvachiligi va hayvonlarni
oziqlantirish texnologiyasi” kafedrası

5620600 - ZOOTEKNIYA (TARMOQLAR BO'YICHA) BAKALAVR
TA'LIM YO'NALISHLARI UCHUN “QO'YCHILIK VA ECHKICHILIK”
FANIDAN

MA'RUZA KURSI

Muallif:

qishloq xo'jalik fanlari nomzodi, dosent **A. Inoyatov.**

Taqrizchilar:

1. O'zbekiston qorakulchilik va cho'l ekologiyasi ilmiy tadqiqot instituti direktor muovini, qishloq xo'jalik fanlari nomzodi Gazyev A.
2. Samarqand QXI “Zootexniya, hayvonlar genetikasi va urchitish” kafedrası mudiri, professor D.X. Xolmirzayev.

SAMARQAND – 2010

M U N D A R I J A

- 1-Mavzu: Qo'ychilikning halq xo'jaligida ahamiyati – 3 bet.
- 2-Mavzu: Qo'ylarning kelib chiqishi. Qo'y zotlari taraqqiyotining tarixiy yo'li. Qo'y zotlarining klassifikatsiyasi – 7 bet.
- 3-Mavzu:. Qo'ylarning biologik hususiyatlari, konstitutsiyasi va eksteryeri – 12 bet.
- 4-Mavzu: Qo'ychilikdan olinadigan mahsulotlar zotdor qo'ylarning joylashuvi va rayonlashishi – 18 bet.
- 5-Mavzu: MHD da keltirib chiqarilgan mayin junli qo'y zotlari - 25 bet.
- 6-Mavzu: Yarim mayin junli qo'y zotlari, : yarim mayin junli qo'y zotlari klassifikatsiyasi 31 bet.
- 7-Mavzu: Yarim dag'al junli quychilik – 35 bet.
- 8-Mavzu: Dag'al junli qo'ychilik – 41 bet.
- 9-Mavzu: Qo'yni o'rchitish metodlari – toza nasl o'rchitib chatishirish, gibridizatsiya – 46 bet.
- 10-Mavzu: Qo'ylarni qo'zilatish mavsumida boqish-asrashni kun tartibi – 50 bet.
- 11-Mavzu: Jun qirqimini tashkil qilish va o'tkazish – 57 bet.
- 12-Mavzu: Echkilarning kelib chiqishi, biologik hususiyatlari, konstitutsiyasi va eksteryeri – 12 bet.

1. Mavzu: Qo'ychilikning halq xo'jaligida ahamiyati

Reja:

1. Kirish
2. Qo'ychilikning taraqqiyotining qisqacha tarixi
3. Qo'ychilikning hozirgi ahvoli
4. Chet el mamlakatlarida qo'ychilikning hozirgi ahvoli

Adabiyotlar:

1. Ризаев Ш.М. «Жуншунослик ва жун товаршунослиги» ва бошқалар. Тошкент. 1985.
2. Юсупов С.Ю «Овцы и козы Узбекистана». Т. 2002.
3. Юсупов С.Ю. «Пустинно-пастбищное животноводства» Самарканд 2001.
4. www.Ziyonet.uz
5. <http://www//uralrti.ru>.

Mamlakatda yetishtirilayotgan go'shtning 96% xususiy sektor hissasiga to'g'ri kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 1993 yil 3- sentiyabrda qabul qilingan «Vetinariya» to'g'risidagi 1995 yil 21 dekabrda qabul qilingan «Nasilchilik» to'g'risidagi qonunlari chorvachilikni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Respublika vazrlar mahkamasining 1993 yil 15 martdagi Respublika Chorvachiligida iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish chora tadbirlari to'g'risidagi 1994 yil 23 fevraldagi «Chorvachilikda iqtisodiy islohatlarni takomillashtirish hamda dehqon fermer xo'jaliklari va xususiylashtirilgan fermerlar manfaatlarini himoya qilish choralari to'g'risida»gi 2006 yil 23 martdagi «Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xujaliklarida chorva mollarini ko'paytirishni rag'barlantirish chora tadbirlarito'g'risida»gi qarorlari esa sohani taraqqiy ettirish jarayonida asosiy dastur bulib xizmat qilmoqda

O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2006 yil 23 martdagi «Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollarini ko'paytirishni rag'barlantirish chora tadbirlari to'g'risidagi»gi PQ-308 qarori ikkinchi bandiga asosan ma'qullangan «2006-2010 yillar davrida shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xujaliklarida chorva mollari birinchi navbatda qora mollar sonini ko'paytirishni rag'barlantirish dasturi»da esa shu maqsaddan kelib chiqib, quydagi vazifalar belgilangan:

- 2010 yilda qora mollar sonini 2005 yildagiga nisbatdan shaxsiy yordamchi, va dehqon xo'jaliklarida 40.2 %yoki 2422,5 ming boshiga ko'aytirib 8450 ming boshga, fermer xo'jaliklarida 98 % ko'paytirib, 655 ming boshga yetkazish

- Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xujaliklariga zooveternariya va boshqa servis xizmatlari ko'rsatuvchi infratuzilmalar tarmog'ini rivojlantirish maqsadida, besh yil davomida qo'shimcha 575 ta zooveternariya shaxobchalari, 330 ta sun'iy urug'lantirish punktlari tashkil qilib , zooveternariya

shaxobchalari soni 2343 taga, sun'iy urug'lantirish punkitlari soni 884 taga yetkazish;

- Nasilchilik xo'jalik maqomi berilgan fermer xo'jaliklarida zotni yaxshilangan qora mollarni ko'paytirish Bilan shug'illangan fermer xo'jaliklarida besh yil davomida 100.8 ming ta nasilli va zoti yaxshilangan mol yetishtirilib, ularni auksionlar orqali shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklariga sotish.

Jahonning ko'pgina mamlakatlarida qo'ychilik maxsuldor chorvachilikning muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi.

Mazkur soxa zotlarning miqdoriga, berilgan maxsulotlarning turli-tumanligiga kura chorvachilikning boshqa ssoxalaridan ustun turadi.

Qo'ychilik vatanimiz chorvachiligining eng qadimiy vash u bilan birga eng muhim tarmoqlaridan biridir. Bu muhim soxadan insoniyat qimmat baho hisoblanadigan bir nechta maxsulotlarni oladi. Bu maxsulotlar jumlasiga sanoat uchun qimmatbaho xom ashyolar_jun,qo'yterilari, bara terilari, oziq-ovqat mahsulotlari- qo'y gushti va yog'i,qator rayonlarda sog'ib olinadigan qo'y suti kiradi. Qo'ylar mahsuldor hayvonlari orasida eng ko'p sonlisidir.Qo'ylarer sharining shimoliy qutibdan to eng janubiy rayonlar hisoblanmish Argentenaning Olovli yer orollarigacha tarqalgandir. Qo'ylarning shuningdek Avstraliya, Yangi Zelandiya, Hindiston, va Yevropa mamlakatlarining past tekisliklariga, ko'pgina sahrolarga va hatto eng baland hisoblanadigan tog' yaylovlariga ham tarqalgan. Ximolay va Tibet tog'larida halqlar qo'ylardan yuk tashuvchi hayvonlar sifatida foydalanishadi.

1990 yillarning o'rtalariga kelib, yer kurrasida yashovchi har 100 kishiga 30 boshga yaqin qo'y to'g'ri kelgan. Bu kursaigich Yangi Zellandiyada 2160 boshni, Avstraliyada 1640 boshdan ortiqroqni, Mangoliyada 1000 boshni, AQShda 10 boshni, Yevropa mamlakatlarida -2-6 MOX da esa 60 boshni tashkil qiladi.

Xo'jaliklarda qo'ychilik Bilan shug'illanish ulardagi ozuqa resurslaridan tulig'icha va samarali foydalanish imkonini beradi.

Eramizdan bir necha asirlar ilgari va eramizning boshlarida MOX ning hozirgi chegaralarida yashagan skflar, samatlar, va boshqa halqoar rivojlangan chorvachilikka, ayniqsa otchilik va qo'ychilikka ega bo'lganlar.

Jun qoplaminig kompleks hususiyatlariga kura hozirgi paytda qo'ychilikning asosiy yo'nalishlari mavjuddir:

Mayin jun beruvchi, yarimmayin jun beruvchi, va dag'al jun beruvchi yo'nalishlardir.

Mayin jun beruvchi qo'ychilik – o'z ichiga 22 zotni kiritib, asosiy maqsad bu qo'ylardvn iloji boricha ko'p miqdorda bir xil tolali Mayin jun olishdir.

Yarim jun beruvchi qo'ychilik_- 22 qo'y zotini o'z ichiga olib bulardan yarimmayin jun va qisman qo'y gushti asosan bir yoshga yetmagan qo'zilardan olishdir. Shu sababli ham bu yo'nalishdagi qo'y zotlarini urchitish paytida asosiy e'tibor ularning jun maxsuldorligi Bilan bir qatorda tez pishuvchanligiga, jussasi og'irligiga, tezsemiruvchanligiga, kamroq ozuqa hisobiga ko'proq gusht beruvchanligiga qaratiladi.

Yarim dag'al jun beruvchi qo'ychilik –o'z ichiga 3 qo'y zotini olib, yarim dag'al qo'y junidan tashqari gusht, yog' va qimmatbaho qo'y terisi olinadi.

Dag'al jun beruvchi qo'ychilik – bu yo'naliga 23 qo'y zoti kiradi. Bu zotlarning asosiy belgisi juning harxil tolalardan iborat bo'lib dag'alligidir. Bular turli-tuman mahsulotlar beradi. Bizda ko'p miqdorda juda ham ko'p miqdorda qo'y gushti, juni, pusti muynabop xomashyolarniyetishtirish va halqimizning ana shu mahsulotlarga bo'lgan talabini tulig'icha qondirish imkoniyatlari mavjuddir.

O'zbekistonda 1997 yilning 1 yanvarida qo'y va echkilar 7986 ming boshni, 1998 yilning 1 yanvarida 8075900 boshni tashkil qiladi. 1996 yilda 13720 tonna 1997 yilda esa 12914 tonna jun yetishtirildi.

N.A.Vasilyev /1978/ ma'lumotlarga bo'yicha yer kurrasidagi mayda tiyoqli mollar bosh soni 1976 yilda 1.038 mln.ni tashkil qildi, jun ishlab chiqarish esa 2590ming tonnani yoki har bir bosh qo'y hisobiga 2,5kg.ni tashkil qiladi. Oxirgi 30 yil davomida qo'ylarning soni 33 prosentga jun yetishtirish esa 42 prosentga ko'paydi. Jun yetishtirishning ko'payishi qo'ylar bosh soning ko'payishi va mahsuldorligini oshirish hisobiga yuz bergan.

Yer yuzida bo'lgan jami qo'ylar va echkilarning yarmidan ko'prog'i qo'ydagi mamlakatlardadir: Fvstraliya, Yangi Zelandiya, Argentina, Urugvay va AQSh.ana shu mamlakatlar birgalikda xayirli 1,8 mln.tonnadan ko'proq, yoki jahon yalpi jun mahsulotlarining $\frac{3}{4}$ qismini yetishtirishadi.

Xorijiy mamlakatlar orasidav qo'ychilikning taraqqiyotiga ko'ra Avstraliya alohida o'rin egallaydi.bu mamlakatda 1976 yilda 148,6 mln bosh qo'y bo'lgan edi, yillik jun yetishtirish 754,3 ming tonnani tashkil qilgan edi.Avstraliyaning qo'ychiligining asosiy yo'nalishi-mayin jun yo'nalishdir.qo'ylari gavdalari kichginaligiga qaramasdan ko'p miqdorda yuqori sifatli jun berish qobiliyatiga egadir.Avstraliyaning dehqonchiligi yaxshi taraqqiy etgan dengiz sohili rayonlarida esa qo'ychilik yarim mayin jun gusht berish yo'nalishidir. Bu mamlakatda qo'ylarni butun yil bo'yi chegaralangan yaylovlarda ochiq havoda boqishadi. Chuponlar mehnati minimumga keltirilgan. Bu esa o'z navbatida mehnat unimdorligini oshishga, mahsulot tannarhning kamayishiga olib kelmoqda. Eng yuqori mahsulotlar qo'ychilikka ega bo'lgan Yana bir mamlakat Yangi Zelandiyadir. Bu yerda 1996 yilda 56,3 mln.bosh qo'y bo'lgan, 311,8 mingtonna jun yetishtirilgan.Qo'ychilikning asosiy yo'nalishi-yarimmayin jungusht berish yo'nalishidadir.Har bosh qo'ydan o'rtacha 5,52 kg jun qirqib olinadi.Qo'ychilikning Yana bir serdaromad tarmog'i-qo'y gushti yetishtirish.Gusht uchun asosan 4-5 oylik boqilgan qo'zilar so'yiladi. Avstraliyadabulgani kabi Yaning Zelandiyada ham dag'al va yarim dag'al jun beruvchi qo'tilmaydi. Butun yil davomida qo'ylar chegaralangan tusilgan yaylovlarda ochiq havoda boqiladi. Bu mamlakatlarda qo'ylar galasini, qaytarish, chumiltirish va boshqa ishlarda o'rgatilgan itlardan keng foydalaniladi.

Amerka qit'asida rivojlngan qo'ychilik asosan Argentina, Urugvay va AQSh dadir. Bu mamlakatlarda ko'pincha yarimmayin jun-gusht beruvchi, qisman Mayin jun beruvchi qo'y zotlari uchratiladi. Qo'ylar ko'p vaqti baland tog'

yaylovlarda boqiladi. Bu mamlakatlarda ham yosh qo'zilar boqib, semirtirib gushtga suyish keng tarqalgan. Qo'ylarning o'rtacha jun mahsuldorligi 3,5-4 kg. Bu qit'aning boshqa mamlakatlarida asosan jun beruvchi qo'y zotlari uchratiladi.

Kuba va Braziliyada hatto bittadan junsiz qo'y zotlari ham uchratiladi. G'arbiy Yevropa mamlakatlari orasida Angiliyada qo'ychilik yaxshi rivojlangan. 1976 yilda bu mamlakatda 28,2 mln. bosh qo'y bor edi. Qo'ychilarning asosiy yunalishi-yarim mayin jun-gusht berish yo'nalishidir.

Angiliyada 47 qo'y zot uchratilib, hujaliklar ulchami urtachadir. Ko'pgina fermasillik hayvonlar yetishtirish bilan, boshqa mamlakatlarga sotish bilan shug'ullanishadi. Angiliyadagi qo'y zotlari o'zlarining irsiy xususiyatlarini nasilga berish xususiyatlari o'ta kuchlidir, shu sababli ham bu zotlardan mahaliy qo'y zotlarini yaxshilovchi sifatida keng foydalanishadi.

Osiyo mamlakatlari asosan dag'al jun beruvchi qo'y zotlarini urchitishadi. ana shunday qo'y zotlaridan Hindistonda 26, Ironda 18, Xitoyda 13, Pokistonda 19, Turkiyada 12 xili mavjuddir. Bundan tashqari Hindistonda, Indoneziyada, Seylonda, Birmada va Shri Lanka respublikasida junsiz qo'y zotlari ham uchratiladi.

Mayin jun beruvchi qo'y zotlari Osiyo mamlakatlari orasida Hindiston va Xitoyda u ham balsa kam miqdorda, yarimmayin jun beruvchi qo'y zotlari, ular ham kam miqdorda Hindistonda, Pokistonda, Xitoyda, Mangoliyada va Turkiyada uchratiladi. Afrika qit'asida 82 qo'y zoti mavjud bulib, ularning 43 tasi junlikdir. Afrikaning qo'ychilik bilan shug'ullanuvchi 33 mamlakatning 29 tasida asosan junsiz zot qo'ylar uchratiladi.. Mayin jun beruvchi qo'y zotlari faqatgina Janubiy Afrika Respublikasida, qorakul qo'ylari Namibiya va Jar kam miqdorda Angoliyada, mozambekda, Chadj respublikasida uchratiladi. Afrika mamlakatlari qo'ychiligining zot tarkibiga kura turli-tuman bulishga mkzkur hit'a iqlim sharoitining qziga xosligi va aholisining mayda-mayda etnik gupalarga bulinib ketishi bilan izohlash mumkun.

Yer kurrasida mavjud bulgan qo'y zotlarining miqdori to'g'risida matbuotda e'lon qilingan ma'lumotlar turlicha.

A.A.Veniaminov «Ovsevodstvo» J. № 1, 1974-629

N.A.Vasiyev «Ovsevodstvo» J. № 4, 1978-568

G.R.Litovchenko va boshqalar «Ovsevodstvo» kitobi, 1972-429.

2. Mavzu: Qo'ylarning kelib chiqishi. Qo'y zotlari taraqqiyotining tarixiy yo'li. Qo'y zotlarining klassifikatsiyasi.

Reja:

- 1.Qo'ylarning kelib chiqishi.Hozirgi zamon qo'ylari ajdodlar,ularning yashagan joylariva biologik hususiyatlari ta'rifi.
- 2.Domestikatsiya belgilari(qo'lga uratilgan jarayondaq qo'ylarda hosil bulgan hususiyatlar).
- 3.Qo'y zotlarining klassikasiyalari:
A)Zalogik klassikasiya.
B)Mahsuldorligiga kura klassikasiya.

Adabiyotlar:

1. Ризаев Ш.М. «Жуншунослик ва жун товаршунослиги» ва бошқалар. Тошкент. 1985.
2. Юсупов С.Ю «Овцы и козы Узбекистана». Т. 2002.
3. Юсупов С.Ю. «Пустинно-пастбишное животноводства» Самарқанд 2001.
4. www.Ziyonet.uz
5. <http://www//uralrti/ru>.

Xozirgi zamon chorvachiligining rivoji va taraqqiyotida uy hayvonlarining qo'lga o'rgatilgandan to hozirgi holatigacha bosib o'tgan tarixiy taraqqiyot yo'lini o'rganib chiqish kata ahamiyat kasb etadi.

Yovvoyi hayvonlarning qo'lga urgatiishi kishilik jamiyatining taraqqiyot darajasi bilan uzviy bog'liqdir.

Kishilik jamiyatining birinchi bosqichi hisoblanmish birlamchi jamoaning oilagacha bo'lgan yashagan odamlar tabiat bilan uzviy bog'liq edilar, ya'ni tabiatning in'omi va ehsonlari hisobiga yashar edilar. Har bir turdagi yovvoyi hayvonlarning hulq-atvorlarini,hususiyatlarini o'sha zamon kishilarining utroqlashgan hayotga o'tilishlari va dehqonchilikdagi dastlabki qdamlari Bilan yovvoyi hayvonlarni qo'lga urgatiish uchun yetarli shart – sharoitlar vujudga keldi.

Aftidan, itlardan keyin dastlabki qo'lga uratilgan hayvonlar qo'qy va echki bulsa kerak. Qo'ylar sut emizuvchilar sinifiga,kovshovchilar pod siniffiga, juft tuyoqlilar otryadidagi qo'ylar toifasiga kiradi.. Qo'ylar uy hayvonlari orasida eng qadimiylaridan hisoblanadi.Keyingi paytlarda qazilmalardan topilgan tobutlarga uyinchoqlarga,haykalchalarga va boshqa antik, madaniyati qoldiqlariga solgan qo'y suratlarining borligi qo'y suyaklari Izotov uglirot analizining natijalori qo'ylarning eramizdan 6-7 ming yil ilgariroq qulga o'rgatilganidan dalolat beradi.

Lekin, yovvoyi qo'ylarni qo'lga urgatiish markazi bir joydami yoki bir necha joydami bulganligi haligacha aniq emas.

Qo'ylarning kulga urgatiish avvalo hozirgi Eron,O'rta Osiyoning Janubiy va sharqiy rayonlarida boshlanganligi haqiqatga yaqinroqdir.

Shimoliy Afrika sahroliklarida ham qo'ylarni qo'lga urgatish eng oldin boshlangan bulishi ehtimoldan holi emas, chunki bu yerlarda tosh asrida ham muflonlar qo'ylari yashagani tasdiqlangan.

Xonakilashagn qo'ylarning ajdodlari – yovvoyiy qo'ylar bizning zamonamizda yashab kelmoqda. Bu gruppada hayvonlari ikki turga bulinadi. Bulardan bir turi Shimoliy G'arbiy Amirka va Shimoliy Sharqiy Osiyodan yashshovchi yug'on shoxli yovvoyiy qo'ylardir.

Ikkinchi tusri Osiyo va Yevropada yashovchi barcha yovvoyiy qo'y zotlari. (mafton va arkar) bulib gavda tuzilishi va ulchamlariga yashaydigan joylarga qarab mayda-mayda grupchalarga bulinib ketadi. Qator belgi va hususiyatlarga kura yovvoyiy va madaniylashgan qo'y, echki zotlari oraligini egallovchi mayda tiyoqli mollar ham mavjud, bulib, bularga Shimoliy Afrikada yashovchi yolklik qo'ylar, Markaziy Osiyoda yashovchi tarlar va naxurlar kiradi.

Bularni xonakilashtirilgan qo'ylar bilan chatishtirdan bola olish mumkin emas. Xonakilashgan qo'ylarning ajdodlariga hozirda xom yovvoyiy holda yashovchi muflonlar, arklar kiradi.

Muflondar O'rta Yer dengizining Koriska, Kpir, Sardaniya yarim orollarida Eronda, Kavkaz tog'larida, O'rta Osiyo Respublikalarda va Qozoqistonda uyaraydi. Muftonlarning yashaydigan joylari asosan odam oyog'i yetmaydigan baland tog' chug'g'ilariva qoyalardir.

Chul va sahrolarda muflonlar uchramydi. Muftonlar unchalik kata bo'lmaydi-bo'yi 70-80 sm, og'irligi 60-65kg. Tana tuziloishi ko'p jihatdan uy qo'ylariga o'xshab ketadi. Boshi o'rta ulchamda, suyaklari yaxshi rivojlangan, oyoqlari ingichka mahkam. Jun qoplamikalta nozikitivit va uzunroq, dag'al, yug'on kichik tolali aralashmasidan tashkil topgan jun koplami och jiga rva sariq rangda buladi.

Ko'pincha qornining yog', tomonlarida, oyoqlarida olalik buladi. Jun maxsuldorligi 1-2 kg. Muflonlar mustahkam konstitutsiyaga ega bulib, o'ta chaqqon va abjir buladi. Muflonlar hozirgi zamon kalta dum dag'al junlik qo'y zotlarining ajdodi hisoblanib, osonlik bilan qulga uratiladi.

Muflonlarni turli qo'y zotlari bilan chatishtirishdan oldin bolalarini keyingi urchitish ishlarida foydalanish mumkin.

Arkar-Kozog'iston va Urta Osiyo respublikalarida Eron, Afg'oniston va Osiyo qit'asining boshqa mamlakatlarning chegaralarida yashaydilar. Muflonlardan farqli ularoq ravishda arklar faqatgina tog'larda yashamasdan, balki pastliklarda ham yashaydilar. Gavda tuzilishiga kura xonakilashgan qo'ylarga juda ham uxshagan bulib, muflonlardan yirikroqdir.

Ularning bo'yi 100-110sm. gacha, og'irligi 100kg. dan 150kg. gacha boradi. Arkarlarni jun qoplami sariq, och-sariq rangdagi dag'al tolalardan iboratdir. Yillik jun maxsuldorligi 1-2 kg.

Arklar dag'al jun beruvchi uzun dumlik va dumi uzun dumlik qo'ylarning (Valosh, Qorkkul, Sokal, reshtilov zotlari) ajdodi hisoblanadi. Shuningdek mayin jun beruvchi sigay qo'y zotlari ham arklardan kelib chiqqan bulishi ehtimoldan uzoq emas.

Argali(arxarlar) – Oltoy o'lkasining Janubid,Kamchatkada,Ximolay tog'larda,Tibit tog' tizmalarining G'arb qismida, Alyaskalarda yashaydilar. Argalilar arxarlarga nisbatan yirikroqdir. Bo'yi120-125 sm.niog'irligi 150200 kg. Va undan ham ko'proqni tashkil etadi. Mufonlar va arxarlar singari argarlilar ham xonakilashgan qo'ylarga ancha o'hshashdir. Jun qoplam tuq ko'k yoki och sariq rangdagi kalta dag'al tolalardan iboratdir. Yillik jun maxsuldorlig 1-2 kg. Argarlilar hozirgi zamon dumbali qo'ylarining ajdodlari hisoblanadi. Qozog'istonda Mayin jun beruvchi qo'y zotlarini argalining turi hsoblanmish arxar Bilan chatishtirish yo'li Bilan Yangi qo'y zoti arxarmorinos zoti yaratiladi.

Odamlar qadim zamonlardan buyon uy hayvonlarini uzlashtirishga ularning tmaxsuldorligini oshirishga harakat qilib kelganlar.Qulga urgatilgandan boshlab to hozirgi vaqtgacha uy hayvonlari ancha o'zgardi ya'ni ularning ham fizalogik funksiyalari, ham organezimning marfologik tuzilishlari turli uzgarishlarga uchradi.

Uy hayvonlarida ro'y bergan asosiy fizologik uzgarishlarga qo'ydagilarni kiritish mumkun.

- 1.Hayvonlar urchitilishida mavsumiylikni buzilishi.
- 2.Hayvonlarda ko'p bolalikni kuchaytirilishi.
3. Hayvonlarda tez pishuvchanligini oshirish (jinsiy yetilishi usishi va rivojlanishi).
- 4.Maxsuldorlikni oshishi.

Anna shu yuqoridagi fizalogik uzgarishlar hayvonlarning tana tuzilishini ham uzgarishiga olib keladi. Bu uzgarishlarning asosiylari qo'ydagilardir:

- 1.Tana tuzilishining uzgarishi
2. Tana ulchamlari va gavda og'irligining oshishi.
3. Rangining uzgarishi.
- 4.Jun qoplamining uzgarishi.
- 5.Terining uzgarishi.

- 6.Sut bezlarining uzgarishi.

Uy hayvonlarining bosh suyaklari, skeliti, shoxlari va ichki organlari ulchamlariga kura sezilarli uzgarishlarga uchraydi.

Uy sharoitda hayvonlar nerv sestimasining harakatchanlingi susayadi. Ya'ni Qator shartli va shartsiz reflekslar yo'qoladi. Shu Bilan bir vaqitdahayvonlarda Yangi reflekslar ya'ni odamlar chaqirganiga kelish, ovqatlanish soatlariga kunikish, uzlarini odamlar sog'ishga qarshilik4 qilmaslik paydo buladi.

Odamlar qo'ylarda yuz bergan o'zgarishlarining ijodkoridir,chunki qulga urgatilgan va xonikilashtirilgan hayvonlarda uziga kerakli bulgan sifat va hususiyatlarning shakllanishi va rivojlanishiga erishdi. Odamzot tashq kurinishiga, maxsuldorligiga va turli xil hujalik va iqlim sharoitlariga moslashishiga kura bir-biridan farq qiluvchi bir necha yuz qo'y zotlarini yaratdilar.

Barcha qo'y zotlari ayrim kursatgichlarnng o'xshashligiga kura maydaroq guruppalarga bulinadi, ya'ni klassifikasiyalanadi. Qo'ychilikda ikki xil sestemadagi klassfikasiyaga: a) zoologik b) ishlab chiqarish yoki hujalik klassifikasiyaga bulinadi.

Zoologik klassifikasiya-mazkur klassifikasiyaga asos qilib qo'ylar dumining shakli va uzunligi olingan. Dumning shakli yig'ilib qolgan yog' miqdoriga, tashqi kurinishiga, dum umirtqaning soniga bog'liqdir.

Hayvonlarning zoologik klassifikatsiyasi birinchi marta tabiatshunos Pallas tomonidan ishlab chiqilgan. Keyinchalik bu klassifikasiya Patuzis va rus olimlari N.P.Quleshov va M.F. Ivanovlar ayrim uzgartirishlar kiritdilar.

Zoologik klassifikasiyaga kura asos qilib qo'ylar dumining mutloq uzunligi (sm.larda)emas, dum uchining oyoqdagi sakrash bug'inigacha yetish yoki yetmasligi olingan.

Dumning uzunligi va shakliga kura barcha qo'y zotlari besh katta guruppgaga bulinadi.

1.Ingichka kalta dumli qo'ylar- dumlari sakrash buyiga yetmaydi, ingichka yog' qoldiqlarisiz. Dumidagi umirtqalar soni 10-12 tagacha. Bu guruppgaga qo'ydagi qo'y zotlari kiradi: Romanov,okarin,malich,shimol kalta dum, va boshqa zotlar.

2. .Ingichka uzun dumli qo'ylar- dumlari ingichka yog' qoldiqlarsiz, sakrash bug'inidan ham pastga utish darajasida uzundir. Dumidagi umirtqalar soni 22-24 tagacha. Bu guruppgaga qo'ydagi qo'y zotlari kiradi: gruziyadumbali Mayin junlik qo'ydan tashqari barcha Mayin jun beruvchi qo'y zotlari,sigariy,yarim Mayin jun beruvchi tezpishar zotlar va ayrim dag'al jun beruvchi qo'y zotlari kiradi.

3.Kalta yog'li dumli qo'ylar – bularda dumlari sakrash buyiga yetmaydigan darajada kaltadir.Yog' yig'ilmalari dum asosida yig'ilib kichgina yostig'cha shaklida dumbacha hosil qiladi. Bu guruppgaga buryat,telingin, kulindin vash u kabi sibirning boshqa dag'al jun beruvchi zotlari kiradi.

4. Uzun yog'li dumlm qo'ylar- dumi uzun ya'ni sakirash bug'inigacha va xatto undan ham pastiroqqa tushadi. Yog' yig'implari ba'zan kichik yostiqlar shakilda, ba'zan ponasimon shakilda buladi. Dumning past qismi yog' yig'implari bulmasdan quruq buladi.

Bu gruppaga qorakul,quchigurov, gruziyaning Mayin jun beruvchi va yarim Mayin jun beruvchi yog'li dumlik qo'ylari, tushin, shimoliy Kavkazning va Kavkaz ortining dag'al jun beruvchi qo'y zotlari kiradi.

5. Dumbali qo'ylar – qo'ylarning dumbalari uta kalta-atigi 5-8 umirtqadan iborat bulib, yog' yig'implari dum atrofiga joylashadi. Bu gruppaga xisor,joydari,edilboy,saraji,tojik, oloy va Urta Osiyo respublikalari va Qazog'istonning bir qator dumbalik maxaliy zot qo'ylari kiradi.

Yuqorida keltirilgan klassifikasiya ayrim guruh qo'ylarning qisman bir-biriga o'xshashligini kasb ettiradi xalos. Lekin maxsuldorligining turi va miqdoriga kura bir-biridan keskin farq qiluvchi bir necha qo'y zotlari ayrim zoologik guruppalarga kiritilgan. Shu sababli ham M.F.Ivanov tomonidan ishlab chiqarilgan ishlab chiqarish nuqtaiy nazaridan amal hiluvchi, qo'ylarning hujalik klassifikatsiyasi kata ahamiyatga ega. Bu klassifikasiya qo'ylarning asosiy beradigan mahsuloti turiga asoslangandir. Berilgan mahsulotlarning halq hujaligidagi mohiyatiga kura urchitiladigan barcha bir necha guruhdagi barcha qo'yzotlari 8- gruppaga bulinadi.

Mayin jun beruvchi qo'y zotlari-Bu qo'y zotlari ingichkaligi 60sifatdan dag'al bulmagan bir xil tolali Mayin jun berish Bilan ajralib turadilar.Bu guruppaga

SM,AM,AN,GR,ST,SalAGM,YuKM,P,KI,KT,ZT,VT,YuUDog'iston,GTJXKrT,Skaz,T, zotlari kiradi.

2. Yarim mayin jun beruvchi qo'y zotlari-qo'ylarning juni 60 sifatdan dag'alroq, bir xil tolali yarim dag'al jundir. Bu gruppaga Qo'y,GOR,S,LITOV ChG,ETG,GRJX,SEV,KAV,M.Sh Tyananiskaya, angiliya gusht jun beruvchi va boshqa zotlar kiradi.

Yarim dag'al jun beruvchi qo'y zotlari-(saradji,tojiki,oloy,)glam tuqish sanoatiga kerakli hisoblangan har xil tolali yarim dag'al jun beradi.

Pustinbop muyna teri beruvchi qo'y zotlari – asosan pustinbop muna terilari va olish uchun urchitiladi. Terilari yuqori sifatlidir.Bu gruppaga romanov,shimol kalta dum va sibir kalta yog'li dumlik qo'ylari kiradi.

Bara teri sut beruvchi qo'y zotlariga korakul, sokal,reshtilov,malich,chushna, zotlari kirib, ular asosan har xil rang va gullarga ega bulgan bara terilarni olish uchun urchitiladi.

Gusht-yog' beruvchi qo'y zotlari- xisor,edilboy, joylari zotlari kiradi. Bu qo'ylarning beradigan asosiy mahsulotlari- gusht va yog' bulib, jun esa ikkinchi darajali mahsulotdir.

- Bu gruppaga kiruvchi qo'y zotlarining beradigan mahsuloti turlariga kura aniq yo'nalishi yo'q,ya'ni ularning urchitish paytida gusht ham jun ham, sut hamqarib bir xil ahamiyat kasb etadi. Bu gshuruppaga tushun, balbos,andiy,karachayev,buryat,va boshqa zotlar kiradi.

Gusht jun, beruvchi dag'al junlik qo'ylar- Bu qo'y zotlarining jun maxsuldorligi nisbatan yuqori bulib gusht maxsuldorligi ham qoniqarlidir. Bularga Mixnov,Cherkass,kuchugurov va boshqa zotlar kiradi.

3. Mavzu:. Qo'ylarning biologik hususiyatlari,konstitutsiyasi va eksteryeri.

Reja:

1. Qo'ylarning biologik hususiyatlari.
2. Qo'ylarning konstitutsiyasi xillari.
3. Maxsuldorligiga kura turli yqnalishdagi qo'ylarning eksteryerlari

Adabiyotlar:

1. Ризаев III.M. «Жуншунослик ва жун товаршунослиги» ва бошқалар. Тошкент. 1985.
2. Юсупов С.Ю «Овцы и козы Узбекистана». Т. 2002.
3. Юсупов С.Ю. «Пустинно-пастбишное животноводства» Самарқанд 2001.
4. www.Ziyonet.uz
5. <http://www//uralrti.ru>.

O'tgan leksiylarimizda qo'ylarning yer sharining hamma burchaklarigacha tarqatilganligini, ularni turli qita, turli iqlim sharoitlarida urchitilayotganligiga qo'ylarning o'ziga xos biologik hususiyatlari ekanligini aytib o'tgan edik. Qo'ylarning tumshuqlari ingichka,lablari va jag'lari o'ta serharaka. Kesgich tishlari oldiga qarab biroz qiyshaygan- anna shu sabablarga kura qo'ylar yaylovtomiriga qadar yulib olish, yerga tushgan qsimliklarning maydagina qisimlargacha terib olish imkoniyatiga egadir. Boshqa kishloq hujalik hayvonlari o'tlay olmaydigan yaylovlarda ham qo'ylarni boqish mumkun. Qo'ylar ularga nisbatdan ko'p xil o'tlarni yeb hazim qilishi aniqlangan.

Qo'ylarin6g ovqat hazim qilish organlari da8g'alozuqalarni xazim qilishga organlari dag'al ozuqalarni xazim qilishga ular tarkibidagi ozuqa moddalarni ko'proq uzlashtirishqobiliyatiga egadir.

Ozuqa va suv yetishmaganda sarflash uchun qo'ylarning dumgaza, dumba,qobirg'a orasi,tushi va boshqa qisimlarida extiyot yog' yig'iladi. (bu narsa ayniqsa qurg'oqchilik kelgan yillarda asqotadi). Qo'ylarning bu hususiyatlari ularning og'ir iqlim sharoitida yashay olishining ular filogenitik taraqqiyotida paydo bulgan belgilardir.

Qo'ylarning oyoqlari mahkam,tuyoqlari mustahkam. Ularning serharakat va chidamli, uzoq masofalarni(sutkaga 25-30 km.gacha) bosib utish hususiyatiga,siyrak o'tli cho'l va tog' yaylovlaridan samarali foydalanish qobiliyatiga egadir.Qo'ylar faqat zax, binolarda saqlashga, botqoqlikdagi yaylovlarga chidamsizdir,bu sharoitda ularning maxsuldorligi pasayadi,oriqlaydi,har xil kasalliklarga chalinadi,ba'zan esa uladilar.

Qo'ylarning yashash muddati 12-14 yil,lekin xujalik sharoitida faqatgina 6-8 yoshgacha foydalanib,keyin yoshga kura yaroqsiz topilib gushtga topshiriladi.

Qo'ylarning jinsiy yetilishi 6-7 oyligida bulib,1-5-2 yoshlik paytlarda ular birinchi qochirimga kiritiladi. Qo'ylarning bug'ozlik davri 5 oy davom etib,sut berish davri esa 9-5-4-5 oy davom etadi. Yelini yaxshi taraqqiy etgan bulib (ikki emchakka,surg'ichga ega). Odatda sovliqlar bir boshdan qo'zi tug'adilar.

Quzilarning tug'ilgandagi og'irliklari onasi og'irligining taxminan 7-8 prosentini tashkil etadi.

Oamlarning ma'lum maqsad qo'lida uzoq vaqtlar davomida olib borgan tanlash ishlari, hamma turli iqlim, yaylov sharoitlariga moslashish joylarda qo'ylarning ayrim belgi va kursatgichlariga kura bir-biridan farq qiluvchi hujalik tiplarini vujudga keltiradi.

Konstitutsiya deb hayvonlarning salomatligi va mahsuldorligini belgilovchi muhim eksteryer va interyer hususiyatlarini yig'indisiga aytiladi.

Konstitutsiya xillari hayvonlarning irsiyati bilan, ular yashaydigan tashqi muhit sharoitlari bilan belgilanadi. Hayvonlar konstitutsiyaning shakillanishida ularning yoshlari kata ahamiyat kasb etadi, chunki hayvon qanchalik yosh bulsa ular tashqi muhitga ushanchalik beriluvchan buladi.

Shunday qilib, odamzot ma'lum maqsad yo'lida oziqlantirish, tarbiyalash yo'li bilan hayvonlarda ozuqa hazim qilishning ayrim xillarining shakillanishi uchun sharoit yaratadi.

Hozirgi vaqtda qishloq hujalik hayvonlari konstitutsiyasi xillarining ko'pgina klassifikasiyalari mavjuddir.

Zootexniya fanida P.N.Kuleshov tomonidan ishlab chiqilgan klassifikasiyasi keng qullaniladi:

Nozik, dag'al, bush va zich konstitutsiya. Bu klassifikasiyalari M.F.Ivanov tomonidan mustahkam konstitutsiya tipii bilan tuldiriladi. Anna shu klassifikasiyada kursatilgan har bir konstitutsiya tipii.

A) Hayvonlar maxsuldorligi bilan uzviy bog'liqdir, chunki biologik koorelsiya qonuniga yoki organizm ayrim kislari taraqqiyoti nisbatlari qonuniga asoslangandir.

Mahsuldorligiga kura turli yunalishdagi qo'y zotlari konstitutsiya xillariga kura bir-biridan farq qiladi, chunki ularda suyaklari, mushaklari, terisi va hazim qilish organlarining taraqqiyotlari turli darajadadir.

Turli hujalik tiplaridagi qo'ylar organlarini urgangan P.N Kuleshov ular gavdasining ayrim qismlari taraqqiyoti ma'lum qonuniyatlarga asoslangan nisbatlar darajasida bulishligini aniqladi. Konstitutsiya tiplari vujudga keladi.

P.N.Kuleshov ma'lumotlariga kura maxsuldorligi buyicha turli xil yo'nalishdagi qo'ylar gavdasi tanasi ayrim qismlarining saomoqlari qo'ydagilarni tashkil qiladi. (tana og'irligiga nisbatan, %)

Gavdaning ayrim qismlari	Mahsuldorligiga kura yo'nalishi		
	Junlor	Gushtdor	Sutdor
Gavda va ichki yog'lari.	41,5	59,6	36,0
Mushaklari (suyaksiz)	20,0	43,7	25,0
Suyaklari va boshi	15,0	8,7	12,0
Yangi shilingan teri	12,9	6,2	7,0
Ichki organlari	37,0	18,6	50,6

Yuqoridagi jadval ma'lumotlardan kurinib turibdiki, gushtdor va sudor qo'ylarga nisbatan jundor qo'ylarning terisi, suyaklari va boshlari og'iroqdir.

Gushtdor qo'ylarda aksincha mushaklari ancha og'ir bulib, teri va suyaklari esa yengildir. Sudor qo'ylarda ichki organlari taraqqiy etgan bulib, gusht mahsuldorligi va terilari unchalik rivojlanmagan.

Shunday qilib maxsuldorligiga kuraturli yo'nalish va turli zotlarga mansub bulgan qo'y zotlarida ayrim organ tuqmalar rivojining o'ziga xosligi natijasida uziga xos konstitutsiya tiplari vujudga keldi.

Shu bilan bir qatorda har bir zot ichida ham turli xil konstitutsiyaga mansub bulgan hayvonlar uchraydi.

Barcha holatlarda ham mastahkam konstitutsiyalik hayvonlar maqsadga muvofiq hisoblanadi, chunki ular provorsional rivojlangandir, ya'ni gavda tuzilishi gormonik tarizda, sog'lom bulib, berilgan ozuqa uchun mahsulot tarizdagi qaytim yaxshi rivojlangan bulib, mahsuldorligi yaxshi.

Kupol konstitutsiya- bu tip qo'ylarda suyaklari, ayniqsa bosh va oyoq suyaklari o'ta rivojlangan, terisi qalinlashgan va dag'allashgandir.

Kupincha oyoqlarining nisbatdan uzun bulishi, boshning kata bulishi natijasida bir xil hayvonlarda gavda tuzilishi mujassamligi buziladi. Bu xil hayvonlarda odatda boshi qupol, gavdasi yirik sog'lomligi ba'zan mustahkam konstitutsiyalik hayvonlarnikidek. Jun tolalarining tez usishi, ingichkaligiga kura notekisligi va dag'alligi sababli ham jun mahsulotining sifati bir muncha pastdir. Gusht mahsuldorligi ham suyaklarning o'ta taraqqiy etganligi sababli bir muncha pastdir.

Nozik konstitutsiya – bu tipdagi hayvonlarning suyaklari ingichka, tumshuqlari, kukrak qafaslari tor, gavdasining orqa qismi osilgan va shunga uxshash kamchiliklarga ega. Mustahkam konstitutsiyalik hayvonlarga nisbatan yengil, mahsuldorligi bir muncha past, chunki ularda jun qoplami siyraklashgan, kalta, Mayin, qorin ostilari kam jun, sog'lomligi bushashgan. Bu tip sovlqlarining bola tug'ish qobiliyati birmuncha pasaygan.

Zich (yoki quruq) konstitutsiya – bu tip konstitutsiyaga mansub bulgan hayvonlar ko'p jihatdan mustahkam konstitutsiyalik hayvonlarga o'xshashdir. Bu xil hayvonlarda yog' yig'implari kam bo'ladi, moda almashishi kuchli, tempromenti tirik, harakatchanligi yaxshi. Suyaklari urtacha rivojlangan, mustahkam terisizich, mushaklari yaxshi taraqqiy etgan sog'lom. Ishlab chiqarish nuqtaiy nazardan bu xil hayvonlar maqsadga muvofiqdir.

Bush (yoki xos) konstitutsiya- Assosiy belgi va kuratkichlarga kura bu xil hayvonlar zich konstitutsiyalik hayvonlarning aksidir. Bularda terisi vat yeri osti kletchatkasining uta rivojlanganligi oqibatida yog' yig'implari miqdorining ko'payishi osondir. Bu xil hayvonlar odatda flegmatik tempromentga ega buladi. Moda almashish jarayonlari biroz sekinlashgandir. Bu xildagi konstitutsiya gusht yo'nalishidagi qo'ylarga xosdir. Bular orsida bola berish qobiliyati past bulganlari, kamsutlari ham uchrab turadi. Odatda ishlab chiqarish sharoitlarida hayvonlarni u yoki bu konstitutsiya tipiga kiritish uchun avvalo ularning tashqi belgilari va mahsuldorlik darajasi hisobga olinadi. Hayvonlar konstitutsiya tiplari aniqroq

belgilash uchun ularning fizologik xolatlari, ayrim organik va tuqmalari ichki tuzilishlari va boshqa shu kabilarni urganish lozim buladi.

Ba'zi paytlarda oraliq konstitutsiya tipga ega bulgan qo'ylarni ham uchratish mumkun.

Qo'ylarning eksteryeri – ularning tashqi kurinishi, ayrim organlar va tuqmalarning taraqqiyoti darajasi.

Hayvonlar eksteryeri to'g'risidagi ta'limot qadimdan buyon mavjuddir. Eramizning 9-10 asrlaridayoq arblar o'zlarining otlarini tashqi belgi va kursatgichlarga qarab baholar edilar. Lekin shunga qaramasdan «eksteryeri» so'zi (termini) daabiyotga birinchi bulib, fransuz mutahasisi Burjul tomonidan yaqindagina, ya'ni 18 asirning oxirida kiritildi. Turli eksteryerdagi qo'ylar odatda mahsuldorlik darajasiga, hayotchanligiga kura bir-biridan farq qiladilar. Chunki olinadigan har bir mahsulot hayvonlar organezimidagi har bir organ, har bir tuqmaning funksional faoliyati natijasidir, bu esa ma'lum darajada ularning konstitutsiya tiplarini va tuzilishini belgilaydi.

Chorvachilik taraqqiyoti tarixida hayvonlarning ayrim belgilarigina qarab, ya'ni umum organizim Bilan bog'lamasdan olib borilgan tanlash va juftlashlar achinarli natijalarga olib kelagn paytlar ham ma'lum.

Masalan: a) qoramolchilikda mahsuldorligiga qarab emas balki rangiga qarab tanlash hayvonlar maxsuldorligi usishga tug'onoq buldi, chunki yuqori maxsuldorlikka ega bulgan, lekin rangi talab darajasida bulmagan hayvonlar yaroqsiz deb topilib, brak qilindi.

b) Ingiliz yurg'a otlarini faqat mahsuldorligiga qarab baholash ularning uta noziklashib ketishiga olib keldi.

v) Hayvonlarni faqatgina jun mahsuldorligiga, (ya'ni jun tolasi) sm uzunlikda ilova mayiligiga qarab olib borilgan tanlash Mazayev qo'ylarniig nimjonlikka va keyinchalshik mazkur zotining tugatilishga olib keldi.

Ishlab chiqarish sharoitida qo'ylarining eksteryerilari kuz Bilan baholanadi. Anna shunday baholashning uta bir tomonlama bulmasligi uchun hayvonlarningulchamlari olinadi, bu esa keyinchalik hisoblanadigan indekslarga kura maskur hayvonning taraqqiyot darajasini, gavdasi ayrim qisimlarining bir-biriga bulgan nisbatlarini aniqlash imkoniniberadi.

Eksteryeriga qarab baholash yo'li Bilan qo'ylarning mahsuldorlik darajasini faqatgina taxmin qilish mumkun xalos.

Qo'ylarning eksteryerini baholaganda, gavdaning ayrim qisimlariga qo'yiladigan talablar albatta ularning mahsuldorlik yo'nalishini hisobga olgan holda qo'yiliog'i lozim.

Terisi-ning tuzilishi va hususiyatlari mahsuldorligini, bara terilar, qo'y terilari vat yeri xomashyosining sifati belgilaydi. Hayvonlar terisi organezimdagi moda almashuvida muhim ahamiyat kasb etganligi uchun ham unga kata e'tibor beriladi. Eng yuqori sifatli Mayin jun beruvchi qo'y zotlarining terisi yupqa va zich bulsa, gusht jun beruvchi qo'y zotlarining terisi esp zichroq, lekin sal bushroq buladi. Uta qalin va bush teri maqsadga nomofiq hisoblanadi. Terining qalinligi va zichligi qo'yning yon tomonida, ya'ni kukrak suyagi oblastida terini buklab, ushlab kurish orqali aniqlanadi.

Boshi – Mahsuldorligiga kura barcha yunalishdagi qo'y zotlarida boshi kata va qupol bulmasligi lozim, chunki bu narsa hayvonlar konstitusiyasining dag'allashgani belgisidir. Jundor qo'y zotlarida boshi uzunroq, quruq bulsa, gusht-jun beruvchi zotlarda esa-kaltarok lekin kengiroq buladi.

Hayvonlarning boshining shakli, kurinishi ular jinsining yordamchi kursatgichi hisoblanadi. Boshning uzun, ingichkalashgan shakli maqsadga nomofiqdir, chunki bu narsa maskur qo'yning nozik tabiatligini, sog'lig'i bushashganligini bildiradi.

Bo'yin- urtacha uzunligida, yetarli darajada keng vachuqur bulmog'i lozim. Gusht-jun beruvchi qo'ylarda jundor qo'y zotlariga nisbatdan buyni kalta va yo'g'onlashgan buladi.

Kukrak qafasi- barcha qo'y zotlarida ham mumkun qadar keng va chuqur bulmog'i lozim, chunki kukrakda eng muhim organlar, ya'ni yurak va o'pka joylashadi. Keng kukrak qafasi gushtdor qo'ylarga xosdir, jundor qo'y zotlarining kukrak qafasi biroz torroq, lekin chuqurroq buladi. Uta tor kukrak qafasi maqsadga nomofiqdir, ayniqsa gusht-jun beruvchi qo'ylar uchun.

Chuqqisi- qo'ylarda keng, yelkasi Bilan bir balandlikda bulishi lozim. Jundor qo'ylarda gushtdor qo'ylarga nisbatan chuqqisi biroz kutarilgan buladi. Organizimning noziklashagnligidan, bushashagnligidandalolat beruvchi ancha kutarilgan va tor qirralik chuqqi barcha turdagi qo'y zotlari uchun ham maqsadga mofiqdir.

Yelkasi va beli- keng, ravon va tekis bulishi lozim, ayniqsa tez pishuvchan gushtdor qo'ylar uchun. Yelka va belining osilganligi hayvon suyaklarining bushashagnligidan dalolatdir. Yelka va belning bukri, yarim oysimon, tor qirra bulishi nuqson hisoblanadi, odatda bunday hayvonning mahsuldorligi pasaygan buladi.

Qorni – agar qo'y qorning pastki chizig'i tug'ri,yelka chizig'iga parallel bulsa bunda tabiiy normal hisoblanadi. Ayrim sovliqlarda, ayniqsa sersut sovliqlarda qorin ortga tomon qiya borishi va biroz tushinkiragan bulishi mumkun. Qorinning ham yaxlit jun bilin qoplangan bulishi maqsadga mofiqdir.

Dumg'azasi- keng, ravon va normal uzunlikda bulmog'i lozim. Ayniqsa gusht – jun beruvchi qo'ylarda anna shunday bulishi muhimdir. Tor, o'tkir kirra, osilgan dumg'aza barcha qo'ylar uchun nuqson hisoblanadi.

Oyoqlari- yaxshi rivojlanagn, tug'ri qo'yilgan va mustahkam bulmog'i lozim. Old va orqa oyoqlar oralig'i keng va biroz qiyshayganroq bulishi lozim. Sakrash va tirsak bug'inlarida oyoqlarning bir-biriga yaqin bulishi kilchiksimon qiyshiq bulishi nuqsondir.

Sut bezlari- hajmlik, emchaklari yaxshi rivojlanagn bulishi lozim.

Hayvonlarning rivojlanganlik darajasini gavdasi kattaligiga qarab ham aniqlash mumkun. Qo'ylarning og'irligi semizligiga, zotiga jinsiga, yoshiga va yilning fasillariga qarab uzgarib turadi. Qo'ylarning og'irligi ertalab, ovqatlanishdan oldin tarozida ulchash orqalianiqlanadi. Qoida buyicha qo'ylarning og'irligi bahorda kirganda sung, kuzda esa qochirim mavsumi oldidan aniqlanadi.

Barcha Mayin jun beruvchi qo'y zotlarining bo'yin va tana qismida ozmi-ko'pmi teri g'ijimlari buladi. Jun qoplami qalin,uzunligi va ingichkaligiga kura bir

tekis bulgan tivit tolalardan iborat bulib, bunday junlar junshunoslik fanida bir xil tolali jun deb ataladi.

Bu guruppaga qo'ylarning konstitutsiyalari odatda mustahkam va zich buladi.

Yarim Mayin jun beruvchi qo'ylarning terisi g'ijimsiz, boshlari shoxsiz, gavdalari uzun va chuqur, oyoqlari kalta va keng qo'yilgan. Jun qoplami uzunroq, biroz siyrak, ingichkaligiga kura bir tekis oraliq tolalardan iboratdir. Gushtdorlik belgilari yaxshi ifodalangan.

Pustinbop teri beruvchi qo'ylarning konstitutsiyalari zich gavda ulchamlar mayda. Suyaklari mustahkam, gavdasi dumaloqroq oyoqlari nisbatdan uzun. Jun qoplami har xil tolalar, ya'ni kalta ingichka kilchik va uzunroq ingichka tivitlar aralashmasidan iboratdir.

Bara teri- sut beruvchi qo'ylarning konstitutsiyalari zich. Suyaklari sistemasi yaxshi taraqqiy etgan, mushaklari taraqqiyoti urtacha. Gavdasi biroz qupol, lekin yassi shakilda. Oyoqlari urtacha uzunlik bug'inlari yaxshi rivojlangan. Terisi yupqa va zich. Juni har xil tolalik, dag'al.

